TOSHKENT VILOYATI OHANGARON SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 8 - oktabr 285-10-214-Q/22 Ohangaron shahar hokimligi

Toshkent viloyati Ohangaron shahridagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalari, “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-son qaroriga asosan Ohangaron shahri hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Shahardagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Shahar Obodonlashtirish Boshqarmasi (J.Sherov):

fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopish ishlarini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Shahar Obodonlashtirish Boshqarmasi (J.Sherov):

xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qaror “Ohangaron hayoti – Jizn Axangarana” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kirishi belgilab qo‘yilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A.Turdibayev va shahar hokimi o‘rinbosari J.Baxodirov zimmalariga yuklatilsin.

Shahar hokimi **A. Eshankulov**

Ohangaron shahar hokimining
2022 yil 8 oktabrdagi
285-10-214-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Ohangaron shahridagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori

T/r	Xizmat turi	O’lchov birligi	Shaharda
1	Go‘r qazish	1 o’ringa	Mehnatga haq to‘lashning eng kam bazaviy hisoblash miqdorining 30 (o‘ttiz) foiz miqdorigacha
2	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o’ringa	bepul
3	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	Mehnatga haq to‘lashning eng kam bazaviy hisoblash miqdorining 20 (yigirma) foiz miqdorigacha
4	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o’rin/kunga	bepul